

## PROMO-AKSIYANI O‘TKAZISH QOIDALARI “Coca-Cola’dan Chempionlar Promosi”

### 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur **Qoidalar** (bundan buyon matnda – «Qoidalar») “Coca-Cola’dan Chempionlar Promosi” promo-aksiyasini o‘tkazish bo‘yicha (bundan buyon matnda – «**Promo-aksiya**») iste‘molchilar e‘tiborini qo‘shimcha jalb etish va IP MChJ «Coca-Cola CA Services» tomonidan ishlab chiqariladigan ayrim alkogolsiz shirin gazlangan ichimliklar savdosini rag‘batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan, (manzil bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan: O‘zbekiston, 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko‘chasi 21A, “Gross Plaza” biznes markazi, 305-ofis) (bundan buyon matnda – «**Kompaniya**»). Aksiya IP MChJ «COCA-COLA ICHIMLIGI UZBEKISTON, LTD» bilan birgalikda (manzil bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Bektemir tumani, Oltintopgan ko‘chasi, 40, ishonch telefoni: +998 71 209 02 15, elektron pochta manzili: coca-cola@cci.com.uz) (bundan buyon matnda – «**Hamkor 1**») va IP MChJ «ANGLESEY FOOD» (Korzinka), MChJ «DARVOZA SAVDO» (Makro); OOO “HALQ RETAIL” (Olma); OOO “ASSORTI DISCOUNT MARKET” (Assorti); OOO “DEHKON MARKET SECOND GROUP” (Dehkon Market); MChJ “Adilbek Invest Nukus” (Zo‘r Market); OOO “BELLISSIMO PIZZA INTERNATIONAL” (Bellissimo); OOO “Maxway food” (Maxway); OOO “DEGREE INVESTMENT” (Dominos); QK MChJ «WENCAF» (Wendys); OOO “GASTRO HUB” (Teriyaki); MChJ “SMART DORADO” (Street 77 va Wok); OOO “CH-FOODEX” (Look); OOO “FOODSTATION” (Apex Pizza); OOO “CTR GOLD” (CTR Chicken) (bundan buyon matnda – «**Hamkor 2**»).

1.2. Promo-aksiya O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 54-bobiga muvofiq ommaviy tanlov hisoblanadi.

1.3. Kompaniya shartnoma asosida professional tashkilotchi sifatida OOO «G FORCE»ni (bundan buyon matnda – «**Tashkilotchi**»), 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, P. Mahmud 2-proyezd, 1-tor ko‘cha, 31-uy, 1-xonadon manzilida ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotni Promo-aksiyani tashkil etish va o‘tkazish uchun jalb qiladi.

1.4. Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Promo-aksiyada ishtirok etayotgan Hamkor 1 mahsuloti iste‘molchilarini moddiy rag‘batlantirish (mukofotlash) tartibi va shartlarini belgilaydi.

1.5. Mazkur Qoidalaridagi moddiy rag‘batlantirish (mukofot) deganda ushbu Qoidalarda belgilangan sovrinlarni topshirish tushuniladi.

1.6. Promo-aksiya o‘yin, garov va/yoki lotereya hisoblanmaydi, tavakkalchilik elementini o‘z ichiga olmaydi, foyda yoki boshqa daromad olishni maqsad qilmaydi va mazkur Qoidalarga muvofiq o‘tkaziladi.

1.7. Promo-aksiyani o‘tkazish muddati:

a) Promo-aksiyaning boshlanish sanasi va vaqti: 2026 yil 15 aprel, Toshkent vaqti bilan 00:00;

b) Promo-aksiyaning tugash sanasi va vaqti: 2026 yil 31 avgust, Toshkent vaqti bilan 23:59.

1.8. Promo-kodni ro‘yxatdan o‘tkazish orqali ishtirokchi u Promo-aksiyada ishtirok etish huquqiga ega ekanligini tasdiqlaydi va u avtomatik ravishda mazkur Qoidalar qoidalariga rioya qilish majburiyatini oladi.

1.9. Promo-aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi.

1.10. Promo-aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi.

1.11. Promo-aksiyani o‘tkazish muddati Kompaniya tashabbusi bilan uzaytirilishi yoki qisqartirilishi mumkin. Promo-aksiya muddati uzaytirilgan yoki qisqartirilgan taqdirda, ishtirokchilar Kompaniya tomonidan tegishli ma‘lumotni Kompaniyaning <https://www.coca-cola.com/uz/ru> veb-saytida va <https://t.me/uzcocacolabot> Telegram botida joylashtirish orqali qo‘shimcha ravishda xabardor qilinadi.

1.12. Ishtirokchilar Qoidalar matni bilan Kompaniyaning <https://www.coca-cola.com/uz/ru> veb-sayti va <https://t.me/uzcocacolabot> Telegram botida tanishishlari mumkin, ushbu matn Kompaniya tomonidan Promo-aksiya boshlanish sanasidan kechiktirmay e'lon qilinadi.

1.13. Qoidalar Promo-aksiya boshlanish sanasidan kuchga kiradi.

1.14. Qoidalar Promo-aksiya muddati davomida Kompaniya tomonidan o'zgartirilishi (yoki to'ldirilishi) mumkin, biroq Promo-aksiya belgilangan muddatining birinchi yarmidan kechiktirmay. Qoidalarni o'zgartirish (yoki to'ldirish) mazkur Qoidalar qanday tartibda qabul qilingan bo'lsa, xuddi shu tartibda amalga oshiriladi. O'zgartirishlar (yoki qo'shimchalar) Kompaniyaning <https://www.coca-cola.com/uz/ru> veb-sayti va <https://t.me/uzcocacolabot> Telegram botida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

1.15. Agar Promo-aksiya Ishtirokchisi Sovrinni olishdan bosh tortsa, mazkur Qoidalar talablarini bajarmasa yoki Sovrinni belgilangan muddatlarda va belgilangan tartibda Ishtirokchi aybi bilan olmasa, Promo-aksiya Ishtirokchisi Sovrinni olish huquqini yo'qotadi va Promo-aksiya G'olibiga tegishli bo'lgan Sovrin Kompaniyada qoladi. Sovrinlar Promo-aksiya G'oliblari tomonidan qayta talab qilib olinishi mumkin emas, ularga pul kompensatsiyasi to'lanmaydi.

1.16. Kompaniya va Hamkor 1 G'oliblarga sovrinlarni topshirishda o'z mablag'lari hisobidan soliqlarni (shu jumladan sovrin qiymati summasidan kelib chiqib jismoniy shaxslarning daromad solig'ini) hamda yig'implarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda mustaqil ravishda to'laydi. Kompaniya Pul mukofotini G'oliblarga topshirishda Tashkilotchini soliq agenti sifatida vakolatlash huquqini o'zida saqlab qoladi.

## 2. PROMO-AKSIYA ISHTIROKCHILARI

2.1. Promo-aksiyada O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan va 16 yoshga to'lgan, mazkur Qoidalaridagi Promo-aksiya shartlarini bajargan jismoniy shaxslar (bundan buyon matnda – «**Ishtirokchi**» yoki «**Ishtirokchilar**»), quyida 2.2-bandda ko'rsatilgan shaxslar bundan mustasno, ishtirok etishlari mumkin.

2.2. Promo-aksiyada Kompaniya/Hamkor 1 va Hamkor 2 xodimlari, shuningdek Kompaniya/Hamkor 1 va Hamkor 2 hamda «The Coca-Cola Company» kompaniyasi bilan bog'liq sho'ba, qaram va boshqa aloqador shaxslar xodimlari (shu jumladan O'zbekiston Respublikasidagi «Coca-Cola CA Services» mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi xorijiy korxonalar), reklama agentliklari, distribyutorlar va Tashkilotchi ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi. Promo-aksiyada ishtirok etish bo'yicha mazkur cheklov ushbu bandda ko'rsatilgan shaxslarning yaqin qarindoshlariga ham (ota-onalar, tug'ishgan va o'gay aka-uka hamda opa-singillar, turmush o'rtoqlar, farzandlar, shu jumladan asrab olingan farzandlar, bobolar, buvilar, nevaralar, shuningdek turmush o'rtoqlarning ota-onalari, tug'ishgan va o'gay aka-uka hamda opa-singillari) tatbiq etiladi. Promo-aksiyada ishtirok etayotgan shaxs o'ziga nisbatan mazkur cheklov qo'llanilishini aniqlagan taqdirda, u bu haqda darhol Kompaniya/Hamkor 1 va Hamkor 2 hamda Tashkilotchini xabardor qilishi va/yoki Promo-aksiyadagi keyingi ishtirokini to'xtatishi shart. Shaxs tomonidan ushbu holatni yashirish va mazkur cheklovga qaramay Promo-aksiyada ishtirok etishni davom ettirish Qoidalarni buzish hisoblanadi va bunday shaxsning Promo-aksiyadagi keyingi ishtirokidan chetlashtirilishiga olib keladi. Mazkur cheklovni buzgan Ishtirokchi Promo-aksiyadagi ishtirokdan avtomatik ravishda chiqariladi. Mazkur cheklov buzilgani aniqlangan taqdirda Kompaniya/Hamkor 1 va Hamkor 2 bunday shaxsga sovrinni topshirishni rad etish huquqiga ega, agar sovrin allaqachon amalda topshirilgan bo'lsa, Kompaniya/Hamkor 1 va Hamkor 2 bunday shaxsdan sovrinni qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

2.3. Promo-aksiya Ishtirokchisi mazkur Qoidalar bilan to'liq hajmda mustaqil ravishda tanishib chiqishi va Kompaniyaning <https://www.coca-cola.com/uz/ru> veb-sayti va <https://t.me/uzcocacolabot> Telegram botida joylashtirilgan shartlariga rioya qilishi shart. Promo-aksiya Ishtirokchisi shaxsan o'z nomidan, ixtiyoriy va mustaqil ravishda harakat qiladi hamda o'z harakatlarining shartlari, oqibatlarini va mazkur Qoidalarda belgilangan tegishli qoidalarni aniq tushunadi.

2.4. Promo-aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi mazkur Qoidalar bilan to'liq tanishganini va ularga roziligini tasdiqlaydi, shuningdek o'zining roziligini (hamda Tashkilotchi yoki Kompaniya/Hamkor 1 va

Hamkor 2ning so‘roviga binoan o‘z shaxsga doir ma’lumotlaridan foydalanish va ularni qayta ishlashga oid tegishli yozma rozilikni zudlik bilan qo‘shimcha taqdim etishga tayyorligini) quyidagilar uchun tasdiqlaydi:

- a) Promo-aksiyada ishtirok etish munosabati bilan reklama intervyularida, shu jumladan radio va televideniye uchun, shuningdek boshqa ommaviy axborot vositalari (jumladan internet, ijtimoiy tarmoqlar) uchun ishtirok etish;
- b) Kompaniya/Hamkor 1 va Hamkor 2, Promo-aksiya operatori (yoki Tashkilotchi) va/yoki Kompaniya/Hamkor 1 va Hamkor 2 topshirig‘iga binoan uchinchi shaxslar tomonidan Ishtirokchini foto va videoga olish;
- c) Ishtirokchi ishtirokidagi yaratilgan foto va video yozuvlardan foydalanish (bunday foydalanish uchun Ishtirokchidan qo‘shimcha rozilik olish zaruratisiz va bunday foydalanish uchun Ishtirokchiga biror haq to‘lanmasdan), shu jumladan reklama maqsadlarida ommaviy axborot vositalarida (radio, televideniye, internet) hamda ko‘rsatilgan foto va video yozuvlardan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga berish huquqi bilan.

2.5. Promo-aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchilar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga, shuningdek taqdim etilgan shaxsga doir ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq vakolatli organlarga berishga Kompaniya/Hamkor 1 va Hamkor 2/Tashkilotchiga o‘z roziligini taqdim etadilar.

### 3. SOVRIN TOIFALARI

3.1. Promo-aksiyani tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar Kompaniya va/yoki Hamkor 1 mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

3.2. Mazkur Promo-aksiya doirasida Hamkor 1ning o‘z mablag‘lari hisobidan quyidagi Sovrinlar o‘ynaladi:

<p>1. Brendlangan merch: Futbol to‘pi (to‘plamda nasos bilan), futbolkalar, sport sumkasi, ryukzaklar, shopperlar, (bundan buyon matnda – «<b>Brendlangan merch</b>»)</p>	<p>To‘p + nasos – 9 890 dona Futbolkalar – 29 590 dona Sport sumkasi - 2 000 dona Ryukzak - 10 000 dona Shopperlar - 10 000 dona</p> <p style="text-align: right;">Jami: 61 480 dona</p>
---	--

3.3. Mazkur Promo-aksiya doirasida Hamkor 1ning o‘z mablag‘lari hisobidan quyidagi Sovrinlar o‘ynaladi:

<p>1. 100 000 000 (yuz million) o‘zbek so‘mi miqdoridagi Pul mukofoti (bundan buyon matnda – «<b>Haftalik Sovrinlar</b>» va/yoki «<b>Pul mukofoti</b>»)</p>	<p>100 000 000 so‘mdan 50 ta Pul mukofoti</p>
<p>2. Sony Playstation 5 Disc Edition 825Gb (bundan buyon matnda – «<b>Haftalik Sovrinlar</b>» va/yoki «<b>O‘yin konsoli</b>»)</p>	<p>100 dona</p>

3.4. Mazkur Promo-aksiya doirasida Hamkor 1 va 2ning o‘z mablag‘lari hisobidan quyidagi Sovrinlar o‘ynaladi:

<p>1. Hamkorlar 2 tarmog‘ida Coca-Cola Promo Combo uchun 100% vaucher*:  Bellissimo Max Way Wendys</p>	<p>100 000 vaucher</p>
--	------------------------

<p>Dominos Teriyaki Street77 Wok CTR Chicken Loook Apex Pizza (bundan buyon matnda – «<b>Darhol Sovrinlar</b>»)</p> <p>*Vaucherning amal qilish muddati olingan kundan boshlab 15 kalendar kunni tashkil etadi.</p>	
<p>2. Hamkorlar 2 tarmog‘ida Coca-Cola Classic 1.5L va pista uchun vaucher:</p> <p>Korzinka Makro Olma Assorti Urgench "Dehkon" Nukus "Zo‘r Market" (bundan buyon matnda – «<b>Darhol Sovrinlar</b>»)</p>	<p>50 000 vaucher</p>

3.5. Sovrinlar soni cheklangan. Kompaniya mazkur Qoidalarda ko‘rsatilgan istalgan sovrin/merchni Ishtirokchi bilan oldindan kelishmasdan boshqa sovrin/merchga almashtirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunda almashtirish iste‘mol xususiyatlari va/yoki qiymati bo‘yicha taqqoslanadigan sovrin/merchga amalga oshiriladi. Hech qanday holatda promo-aksiya va o‘yinning jismoniy yoki elektron Sovrinlaridan birortasi uning qiymatining pul ekvivalenti bilan almashtirilishi mumkin emas.

3.6. Barcha Sovrinlarning tashqi ko‘rinishi, rangi, o‘lchami, konfiguratsiyasi va boshqa xususiyatlari reklama materiallarida faqat illyustratsiya uchun ishlatiladi va topshiriladigan sovrindan farq qilishi mumkin.

3.7. Promo-aksiya davomida Sovrinlarning sifati va soni bo‘yicha e‘tirozlar aniqlansa, +998 71 209 02 15 ishonch telefoni (9:00-22:00) orqali murojaat qilish kerak.

3.8. Kompaniya Hamkor 1 va Hamkor 2 tomonidan taqdim etiladigan sovrinlar bo‘yicha hamkor kompaniyalar tomonidan taqdim etilayotgan mahsulot to‘plamlari va/yoki xizmatlarning sifati va soni uchun javobgar emas.

3.9. Kompaniya Hamkor 1 va 2 tomonidan taqdim etiladigan sovrinlarning shakli, sifati, soni, taqdim etish muddati va boshqa xususiyatlari, shu jumladan, biroq ular bilan cheklanmagan holda Darhol Sovrinlar uchun javobgar emas;

3.10. Taqdim etiladigan Sovrinlarning rangi va xususiyatlari Kompaniya/Hamkor 1 ixtiyoriga ko‘ra belgilanadi.

#### 4. **PROMO-AKSIYANI O‘TKAZISH, UNDA ISHTIROK ETISH VA MINI-O‘YIN MEXANIKASI**

4.1. Promo-aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi Promo-aksiya o‘tkazish muddati davomida Hamkor 1 tomonidan ishlab chiqarilgan va 4.3-bandga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan aksiyaviy mahsulotni (bundan buyon matnda – «Aksiyaviy Mahsulot») sotib olishi va ro‘yxatdan o‘tkazishi kerak. Ushbu mahsulot kumush rangli qopqoqli plastik butilkalardagi (PET) quyidagi alkogolsiz shirin gazlangan ichimliklarni o‘z ichiga oladi:

- a) «Coca-Cola Classic» 0,5 l/1 l hajmli plastik butilkalarda
- b) «Coca-Cola Zero Sugar» 0,5 l/1 l hajmli plastik butilkalarda

- c) «Fanta Apelsin» 0,5 l/1 l hajmli plastik butilikalarda
- d) «Fanta Dyushes» 0,5 l/1 l sig'imli plastik butilikalarda
- e) «Sprite Limon va Laym» 0,5 l/1 l sig'imli plastik butilikalarda
- f) «Sprite Moxito» 0,5 l/1 l sig'imli plastik butilikalarda

4.2. Aksiyaviy Mahsulotning har bir qopqog'i ostida turli raqamlar va lotin harflari kombinatsiyasidan iborat noyob kod (bundan buyon matnda – «Kod») ko'rsatiladi. Noyob koddagi belgilar umumiy soni plastik butilkalar uchun 9 (to'qqiz) ta elementdan iborat.

4.3. Promo-aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi quyidagilarni bajarishi kerak:

- a) <https://t.me/uzcocacolabot> havolasiga o'tib, Promo-aksiya Telegram Botiga (bundan buyon matnda – «Bot») kirish va ro'yxatdan o'tish.
- b) Botda «Start» tugmasini bosish, Botni boshqarish uchun tegishli tilni tanlash, Qoidalar va shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha Kelishuv bilan tanishish hamda ularga rozi bo'lgan taqdirda mobil telefon raqamini kiritish va yashash hududini tanlash orqali ro'yxatdan o'tishni davom ettirish;
- c) «Chempionlar promosi» tugmasini bosish va veb-ilovaga o'tishni amalga oshirish;
- d) «Promo-kodni ro'yxatdan o'tkazish» tugmasini bosish va promo-kodni kiritish;
- e) Kodini kiritish va «Yuborish» tugmasini bosish;
- f) Qopqog ostidagi promo-kodning to'g'riligi tasdiqlangandan so'ng, Bot tomonidan Ishtirokchi Haftalik Sovrinlar o'yinida ishtirok etish uchun promo-kod ro'yxatdan o'tkazilgani haqida tasdiq oladi, shuningdek agar promo-kod yutuqli bo'lsa, Darhol Sovrin yutug'i bo'yicha ma'lumotni ham oladi (Botda sovrinlarni tasodifiy asosda berish algoritmi yordamida avtomatik ravishda aniqlanadi). Barcha promo-kodlar yutuqli emas va Darhol Sovrinni olishni kafolatlamaydi.
- g) Agar promo-kod yutuqli bo'lsa, yutuq haqidagi ma'lumot Botda QR-kod/promo-kodli vaucher ko'rinishida keladi va veb-ilovada aks etadi.

4.4. Aksiyaviy qopqoqdagi har bir Promo-kod ro'yxatdan o'tkazilgani uchun Promo-aksiya Ishtirokchisi ichki aksiyaviy ballarni oladi (bundan buyon matnda – Tanga);

4.5. Bitta aksiyaviy qopqog: 20 tanga.

**4.6. Promo-aksiya Ishtirokchisi quyidagilarni ham olishi mumkin:**

- a) 5 Tanga - Botning o'zida mavjud bo'lgan va gol urish futbol mexanikasiga asoslangan mini-o'yinning 5 (besh) darajasi bosib o'tilgandan keyin mini-o'yinda ishtirok etganlik uchun beriladi. Kunlik hisoblash limiti 5 Tangani tashkil etadi.
- b) 5 tanga - so'rovnomadan o'tganlik uchun;
- c) 10 tanga - do'stlarni Telegram orqali taklif havolasini yuborish yo'li bilan Botga qo'shilishga taklif qilganlik uchun. Taklif qilingan do'st Botda muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tgandan keyin Ishtirokchi avtomatik ravishda 10 Tanga oladi. Haftalik cheklov - bitta Ishtirokchi uchun 5 ta taklif. Promo-aksiya davomida jami 100 kishini taklif qilish mumkin.
- d) Kerakli miqdorda Tanga to'plagan holda, Promo-aksiya Ishtirokchisi ularni Botdagi onlayn do'konda brendlangan merchga almashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- e) Tanga Hamkor 1 mahsulotiga, Darhol Sovrinlarga yoki naqdsiz/naqd pul mablag'lariga almashtirilishi mumkin emas.

4.7. Botda Promo-kodlarni ro'yxatdan o'tkazishning kunlik limiti - 10 tadan ko'p emas.

4.8. Kodlarni Promo-aksiya Ishtirokchilari o'rtasida uzatish taqiqlanadi. Qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda Promo-aksiya Ishtirokchisi Tashkilotchi va/yoki promo-aksiyani amalga oshirish jarayoniga jalb qilingan uchinchi shaxslar tomonidan bloklanadi.

4.9. Promo-aksiya Ishtirokchisi tomonidan shubhali harakatlar aniqlangan taqdirda, Kompaniya yoki Tashkilotchi uning Promo-aksiyadagi ishtirokini hech qanday tushuntirishlarsiz bloklashga haqli.

4.10. Kompaniya/Tashkilotchi Botda ilgari ro'yxatdan o'tkazilgan Promo-kod(lar)ni qabul qilmaydi, chunki bitta Promo-kod Promo-aksiya doirasida faqat 1 (bir) marta ishlatilishi mumkin.

4.11. Har bir Ishtirokchi Promo-aksiya muddati davomida Botning onlayn do'konida merchning har bir turidan 3 (uch) donadan ko'p olishi mumkin emas.

4.12. Brendlangan merch narxi quyidagicha:

- a) To'p + nasos 1200 tanga
- b) Futbolkalar 1000 tanga
- c) Sport sumkasi 1200 tanga
- d) Ryukzak 600 tanga
- e) Shopperlar 600 tanga

4.13. Oldin amal qilgan qiymat bo'yicha rasmiylashtirilgan brendlangan merch buyurtmalari qayta hisob-kitob qilinmaydi va kompensatsiya qilinmaydi, ya'ni buyurtma rasmiylashtirilganidan keyin brendlangan merch narxining pasayishi hisobdan chiqarilgan Tanga miqdorini qayta hisoblash, Tanga qaytarish va/yoki Ishtirokchiga qandaydir kompensatsiya berish uchun asos bo'la olmaydi.

4.14. Promo-aksiya yakunlangach, barcha ishlatilmagan Tanga bekor qilinadi va tiklanishi, kompensatsiya qilinishi yoki boshqa promo-aksiyalar/davrlarga ko'chirilishi mumkin emas.

## 5. PROMO-AKSIYA G'OLIBLARIGA SOVRINLARNI TOPSHIRISH TARTIBI VA MUDDATI

### 5.1. Haftalik Sovrinlar o'yinini o'tkazish tartibi:

5.1.2. Har bir ro'yxatdan o'tkazilgan Kod 100 000 000 o'zbek so'mi miqdoridagi Pul mukofoti va Sony Playstation 5 Disc Edition 825Gb O'yin konsoli bo'yicha haftalik o'yinda ishtirok etadi.

5.1.3. Promo davomida 3.2-bandga muvofiq 50 ta Pul mukofoti va 100 ta O'yin konsoli o'ynaladi.

5.1.4. O'yin 4.3-band shartlarini bajargan barcha Ishtirokchilar o'rtasida o'tkaziladi.

5.1.5. Haftalik Sovrinlar o'yini quyida ko'rsatilgan sanalarda o'tkaziladi va @cocacola\_uzbekistan Instagram akkauntida jonli efrida uzatiladi:

a) **birinchi o'yin:** 2026 yil 25 aprel (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 15 aprel 00:00 dan 2026 yil 24 aprel 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida.

**Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**

b) **ikkinchi o'yin:** 2026 yil 2 may (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 25 aprel 00:00 dan 2026 yil 1 may 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida.

**Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**

c) **uchinchi o'yin:** 2026 yil 9 may (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 2 may 00:00 dan 2026 yil 8 may 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida.

**Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**

d) **to'rtinchi o'yin:** 2026 yil 16 may (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 9 may 00:00 dan 2026 yil 15 may 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida.

**Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**

e) **beshtinchi o'yin:** 2026 yil 23 may (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 16 may 00:00 dan 2026 yil 22 may 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida.

**Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**

f) **oltinchi o'yin:** 2026 yil 30 may (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 23 may 00:00 dan 2026 yil 29 may 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida.

**Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**

g) **yettinchi o'yin:** 2026 yil 6 iyun (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 30 may 00:00 dan 2026 yil 5 iyun 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida.

**Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**

h) **sakkizinchi o'yin:** 2026 yil 13 iyun (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 6 iyun 00:00 dan 2026 yil 12 iyun 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida.

**Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**

i) **to'qqizinchi o'yin:** 2026 yil 20 iyun (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 13 iyun 00:00 dan 2026 yil 19 iyun 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida.

**Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**

- j) **o'ninchi o'yin:** 2026 yil 27 iyun (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 20 iyun 00:00 dan 2026 yil 26 iyun 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**
- k) **o'n birinchi o'yin:** 2026 yil 4 iyul (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 27 iyun 00:00 dan 2026 yil 3 iyul 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**
- l) **o'n ikkinchi o'yin:** 2026 yil 11 iyul (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 4 iyul 00:00 dan 2026 yil 10 iyul 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**
- m) **o'n uchinchi o'yin:** 2026 yil 18 iyul (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 11 iyul 00:00 dan 2026 yil 17 iyul 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**
- n) **o'n to'rtinchi o'yin:** 2026 yil 25 iyul (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 18 iyul 00:00 dan 2026 yil 24 iyul 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**
- o) **o'n beshinchi o'yin:** 2026 yil 1 avgust (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 25 iyul 00:00 dan 2026 yil 31 iyul 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**
- p) **o'n oltinchi o'yin:** 2026 yil 8 avgust (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 1 avgust 00:00 dan 2026 yil 7 avgust 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**
- q) **o'n yettinchi o'yin:** 2026 yil 15 avgust (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 8 avgust 00:00 dan 2026 yil 14 avgust 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**
- r) **o'n sakkizinchi o'yin:** 2026 yil 22 avgust (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 15 avgust 00:00 dan 2026 yil 21 avgust 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**
- s) **o'n to'qqizinchi o'yin:** 2026 yil 29 avgust (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 22 avgust 00:00 dan 2026 yil 28 avgust 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 2 ta Pul mukofoti**
- t) **yigirmanchi o'yin:** 2026 yil 5 sentabr (shanba) soat 18:00 dan 19:00 gacha, 2026 yil 29 avgust 00:00 dan 2026 yil 30 avgust 23:59 gacha bo'lgan davrda kodlarni ro'yxatdan o'tkazgan ishtirokchilar orasida. **Sovrinlar: 5 ta O'yin konsoli, 3 ta Pul mukofoti**

5.1.6. Har bir Promo-kod Haftalik Sovrinlar o'yinida faqat bir marta ishtirok etadi. Haftalik Sovrinlarni yutib olish imkoniyati qopqoq ostida ro'yxatdan o'tkazilgan promo-kodlar soniga bog'liq.

5.1.7. Haftalik Sovrinlar o'yini va G'oliblarni aniqlash Kompaniya/Tashkilotchi vakillaridan iborat komissiya a'zolari ishtirokida <https://randomus.ru/> havolasi bo'yicha tasodifiy sonlar generatoridan foydalanilgan holda, ro'yxatdan o'tkazilgan promo-kodlar orasidan tasodifiy tanlov yo'li bilan yutuqli kodlarni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Kompaniya/Tashkilotchi, agar O'yin vaqtida <https://randomus.ru/> ni ishga tushirish uchun texnik imkoniyat bo'lmasa, boshqa tasodifiy sonlar generatoridan foydalanish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.1.8. Jonli efir vaqtida Kompaniya/Tashkilotchi Promo-aksiya bo'yicha sovrinlar soniga muvofiq va 5.1.2. ii-bandiga asosan har bir o'yinda 7 yoki 8 (yetti yoki sakkiz) nafar asosiy G'olibni hamda bitta O'yinning haftalik sovrinlari uchun 8 (sakkiz) nafar zaxira G'olibni aniqlaydi. Jonli efir davomida Tashkilotchi asosiy G'oliblarga (ketma-ketlik bo'yicha dastlabki 7 yoki 8 kishiga) efrida telefon raqamlarini oshkor qilmagan holda, o'yin natijalarini G'olibga yetkazish maqsadida qo'ng'iroq qiladi. Bunda o'yin g'olibi sifatida aynan ushbu telefon raqamini ro'yxatdan o'tkazgan Promo-aksiya Ishtirokchisi tan olinadi, efrida qo'ng'iroqqa javob bergan shaxs yoki raqam egasidan qat'i nazar. Agar G'olib efir vaqtida qo'ng'iroqqa javob bermasa, Kompaniya/Tashkilotchi vakillari 3 (uch) ish kuni davomida (har kuni 2 martadan) qayta qo'ng'iroq qilishni davom ettiradi.

5.1.9. Agar Kompaniya/Tashkilotchi o'yindan keyin 3 (uch) ish kuni ichida asosiy G'oliblarga qo'ng'iroq qilib bog'lana olmasa, Tashkilotchi ketma-ketlik tartibida zaxira G'oliblarga ham 3 (uch) ish kuni davomida qo'ng'iroq qiladi. Barcha asosiy va zaxira G'oliblar bilan bog'lanish yakunlariga ko'ra, g'olib deb topilganlar sonidan qat'i nazar, shu jumladan g'oliblar soni e'lon qilingan sovrinlar sonidan kam bo'lgan hollarda ham o'yin yakunlangan hisoblanadi.

5.1.10. O'yin davrida g'olib nomining e'lon qilinishi Sovrinni olishning so'zsiz kafolati hisoblanmaydi. Kompaniya Promo-aksiya ishtirokchisidan barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlarni olgandan so'ng, Ishtirokchining Qoidalardagi barcha shart va talablarga muvofiqligini, shuningdek diskvalifikatsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan cheklovlar yo'qligini tekshiradi. Shartlarga nomuvofiqlik yoki buzilishlar aniqlangan taqdirda, Ishtirokchi Sovrinni olishga da'vogarlar safidan chiqarilishi mumkin.

5.1.11. Promo-aksiya G'olibi bilan ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan mobil raqam orqali, Promo-aksiya Kompaniyasiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, bog'lanish imkoni bo'lmasa, Kompaniya Sovrinni topshirmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

5.1.12. Promo-aksiyaning har bir ishtirokchisi Promo-aksiya davomida faqat bitta Haftalik Sovrinni yutishi mumkin. Haftalik Sovrinni ikki va undan ortiq marta yutish bekor qilinadi.

5.1.13. G'oliblar ro'yxati har bir haftalik o'yin o'tkazilgandan keyin Kompaniyaning rasmiy Instagram sahifasi @cocacola\_uzbekistan'da e'lon qilinadi.

## 5.2. **Darhol Sovrinlar o'yini.**

5.2.2. Darhol Sovrinlar o'yini 4.3-bandga muvofiq Promo-aksiya o'tkazilishining butun muddati davomida Botda avtomatik tarzda tasodifiy sonlar generatori (randomayzer) yordamida o'tkaziladi.

5.2.3. Darhol Sovrinlarni yutib olish imkoniyati 4.1-bandga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan Promo-kodlar soniga bog'liq.

## 5.3. **Haftalik Sovrinlar va brendlangan merchni olish tartibi.**

5.3.2. Haftalik Sovrinni olish uchun G'olib Kompaniya, Hamkor 1 va/yoki Tashkilotchiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

5.3.2.1. Yutuqli promo-kodli qopqoqni;

5.3.2.2. Shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (va uning nusxasini);

5.3.2.3. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini (JShShIR);

5.3.2.4. Botda o'z telefon raqami ro'yxatdan o'tkazilganini tasdiqlovchi ma'lumotni taqdim etish;

5.3.2.5. Pul mablag'larini o'tkazish uchun bank rekvizitlari (karta raqami, tranzit hisob, bank MFOsi) ko'rsatilgan, g'olib tomonidan to'ldirilgan va imzolangan arizani (Pul mukofotini olayotganda);

5.3.2.6. shuningdek Kompaniya/Tashkilotchi tomonidan so'ralgan boshqa hujjatlarni;

5.3.2.7. Agar G'olib 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs bo'lsa, Haftalik Sovrinlarni (Pul mukofotini) olish uchun yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagilarni taqdim etish zarur:

5.3.2.7.1. Ota-onadan, farzandlikka oluvchidan yoki homiydan sovrinni olish va tegishli yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish uchun yozma rozilikni;

5.3.2.7.2. Ota-onaning, farzandlikka oluvchining yoki homiyning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (va uning nusxasini);

5.3.3. Tashkilotchi/Hamkor 1 mazkur Qoidalarning 5.3.1-bandiga muvofiq G'olib tomonidan barcha zarur hujjatlar va yutuqli promo-kodli qopqoq taqdim etilgan paytdan boshlab 60 (oltmish) ish kuni davomida Haftalik Sovrinni topshirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.3.4. Darhol Sovrinlarni olish uchun G'olib mazkur Qoidalarga 1-sonli Ilovaga muvofiq sovrin berish nuqtalaridan biriga shaxsan murojaat qilishi va Botda generatsiya qilingan hamda olingan QR-kod/promo-kodni taqdim etishi kerak. QR-kod/promo-kod faqat Ishtirokchi Botda ro'yxatdan o'tishda ko'rsatgan hududda taqdim etilishi mumkin va Darhol Sovrinlar faqat 3.1 va 3.2-bandlarga muvofiq do'konlar va hamkorlar tarmog'ida olinishi mumkin.

5.3.5. Darhol sovrinning QR-kodi/promo-kodi Telegram botda sovrin olingan paytdan boshlab 15 kalendar kun davomida sovrinni olish uchun faol bo'lib qoladi.

5.3.6. Agar Ishtirokchi Hamkorlar 2 tarmog'ida o'z sovrinini ololmasa, u vaucherning amal qilish muddati tugamaganiga ishonch hosil qilishi shart. Agar vaucher amal qilayotgan bo'lsa-yu, biroq sovrin qandaydir sabablar bilan berilmagan bo'lsa, Ishtirokchi sovrinni olishga urinish sanasi va vaqti ko'rsatilgan kassa apparatini yoki berish nuqtasi ekranini suratga olishi va ushbu ma'lumotni Tashkilotchiga taqdim etishi kerak.

5.3.7. Mazkur Qoidalarining 4.3.10-bandiga muvofiq Botdagi onlayn do'konda sotib olingan brendlangan merchni olish uchun Promo-aksiya Ishtirokchisi Telegram botda dastlabki ro'yxatdan o'tishda ko'rsatgan lokatsiyaga muvofiq UzPost berish punktiga buyurtmani yetkazib berish holati haqida UzPostdan SMS-xabar olganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida shaxsan murojaat qilishi kerak. Merch Botda buyurtma berilgan kundan boshlab 60 (oltmish) kalendar kun ichida topshiriladi.

5.3.8. Brendlangan merch toifasidagi sovrinlarni olayotganda G'olib sovrinlarni olish vaqtida buyurtma berish punktida ko'zdan kechirishi shart. Ko'rinadigan nuqsonlar, shikastlanishlar yoki nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, G'olib bu haqda darhol berish punkti xodimiga xabar berishi va sovrinni joyida qaytarishi kerak. Berish punktidan chiqib ketilgandan keyin bildirilgan e'tirozlar qabul qilinmaydi.

5.3.9. Agar Promo-aksiya Ishtirokchisi buyurtma yetkazib berish holati haqida SMS-xabar olganidan keyin 5 (besh) ish kuni o'tgach UzPost berish punktidan brendlangan merchni olib ketmasa, brendlangan merch qayta berilmaydi, Tanga miqdori esa Botdagi Ishtirokchi hisobiga qaytarilmaydi.

5.3.10. Sovrinlarni olish uchun murojaat qilishning, shuningdek Haftalik Sovrinlarni olish uchun to'liq hujjatlar to'plamini taqdim etishning oxirgi muddati - 2026 yil 15 sentabrni ham qo'shgan holda. Haftalik Sovrinlarni topshirish paytida G'olib yutuqli Kodli qopqoqni Kompaniya yoki Tashkilotchi vakiliga topshirishi shart.

5.3.11. Hamkor 1ning yutuqli Kodli qopqog'i, shuningdek 5.3.1-bandda nazarda tutilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, G'olib Haftalik Sovrinni olish huquqidan mahrum bo'ladi. Yutuqli Kodli qopqoqni taqdim etish Haftalik Sovrinni topshirishning majburiy va ajralmas sharti hisoblanadi.

5.3.12. Mazkur Promo-aksiya doirasida olingan O'yin konsolida zavod nuqsoni aniqlangan taqdirda, G'olib ushbu O'yin konsolini Tashkilotchiga topshirgan holda Sovrinni almashtirish yoki ta'mirlash talabi bilan Tashkilotchiga murojaat qilishga haqli. Bunday murojaat G'olib Sovrinni olgan paytdan boshlab 6 oy ichida berilishi mumkin. Mazkur Promo-aksiya maqsadlari uchun «zavod nuqsoni» deganda G'olibga O'yin konsoli bilan birga berilgan kafolat taloni bilan qoplanadigan O'yin konsolining barcha nosozliklari, nuqsonlari va kamchiliklari tushuniladi.

5.3.13. Mazkur Promo-aksiya doirasida olingan O'yin konsolida zavod nuqsoni aniqlangan taqdirda, G'olib ushbu O'yin konsolini Tashkilotchiga topshirgan holda Sovrinni almashtirish yoki ta'mirlash talabi bilan Tashkilotchiga murojaat qilishga haqli. Bunday murojaat G'olib Sovrinni olgan paytdan boshlab 6 oy ichida berilishi mumkin. Mazkur Promo-aksiya maqsadlari uchun «zavod nuqsoni» deganda G'olibga O'yin konsoli bilan birga berilgan kafolat taloni bilan qoplanadigan O'yin konsolining barcha nosozliklari, nuqsonlari va kamchiliklari tushuniladi.

5.3.14. G'olibning murojaatini ko'rib chiqish, shuningdek zavod nuqsoni mavjudligini tasdiqlash O'yin konsoli bilan birga berilgan kafolat talonida nazarda tutilgan kafolatli xizmat ko'rsatish shartlari, cheklovlari va tartibini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.3.15. Zavod nuqsoni faktini tasdiqlash holatida, Tashkilotchi Hamkor 1 bilan birgalikda G'olib tomonidan O'yin konsoli Tashkilotchiga topshirilgan kundan boshlab 60 (oltmish) kalendar kundan kechiktirmay G'olibga ta'mirlangan O'yin konsolini taqdim etish yoki uni kamchiliksiz shunga o'xshash O'yin konsoliga almashtirish majburiyatini oladi.

## **6. QOPQOQLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

6.1. Barcha murojaatlar va taqdim etilgan Qopqoqlar Kompaniya tomonidan tekshiriladi. Kompaniya o'z fikriga ko'ra asossiz bo'lgan har qanday murojaatni yoki Qopqoq haqiqiy Qopqoq emasligi yoxud taqdim etilgan hujjatlardan birortasi haqiqiy emasligini taxmin qilish uchun asosli sabablar bo'lsa, rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi. Qopqoqlarning haqiqiylikiga oid nizolar yuzaga kelgan taqdirda, Kompaniyaning qarori yakuniy hisoblanadi.

6.2. Kompaniya Qopqoqda va/yoki uning ichida bir yoki bir nechta maxfiy yoki yashirin belgi(lar), va/yoki raqamlar, va/yoki harflarni (bundan buyon – Belgi(lar)) bosib chiqarish, shtamplash, tisyom qilish yoki boshqa har qanday usul bilan tushirish huquqini o‘zida saqlab qoladi, ular Kompaniyaga Ishtirokchi taqdim etgan Qopqoq haqiqiy Qopqoqmi yoki yo‘qligini aniq belgilash imkonini beradi.

6.3. Nizo yuzaga kelgan taqdirda, Kompaniya mazkur Qoidalarga muvofiq Qopqoqlarni almashtirish bo‘yicha talablarni taqdim etishning oxirgi muddati tugaguniga qadar Belgi(lar) to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik huquqini o‘zida saqlab qoladi. Promo-aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi shu bilan Kompaniyaning ushbu huquqiga e‘tiroz bildirmasligini va kelgusida ham bildirmasligini tasdiqlaydi.

6.4. Kompaniya, agar uning fikriga ko‘ra Qopqoq qandaydir buzilishlar yoki o‘zgartirishlarga uchragan, qalbakilashtirilgan, shikastlangan, tinalgan, ishqalangan va/yoki iflos yoki dog‘ tushgan bo‘lsa, yoxud bosma, tipografik yoki boshqa xatolarni o‘z ichiga olsa, yoki noqonuniy ravishda olingan va/yoki boshqa tarzda mazkur Promo-aksiya shartlariga mos kelmasa (bundan buyon – Yaroqsiz qopqoq(lar)), bunday Qopqoqni haqiqiy emas deb hisoblash huquqini o‘zida saqlab qoladi. Kompaniya Yaroqsiz qopqoq(lar) bilan bog‘liq har qanday talablarni rad etishga haqli.

6.5. Qopqoq(lar)ning haqiqiyliги va/yoki Belgi(lar) mavjud bo‘lgan taqdirda Qopqoqlarni almashtirish bo‘yicha talablarning asoslanganligi yuzasidan nizo kelib chiqqanda, Kompaniyaning mazkur Qoidalarning 6.2-bandida nazarda tutilgan Belgilar tizimiga asoslangan qarori yakuniy hisoblanadi.

6.6. Kompaniyaning Qopqoqlar egasini aniqlash majburiyati mavjud emas. Tashkilotchiga Qopqoqlarni taqdim etgan Ishtirokchi ularning haqiqiy egasi hisoblanadi.

6.7. Kompaniya Yaroqsiz va/yoki qabul qilinmagan Qopqoqlar bo‘yicha yozishmalarga kirishishga yoki qandaydir tushuntirishlar berishga majbur emas.

6.8. Kompaniya, «The Coca-Cola Company» kompaniyasi (bundan buyon – TCCC), uning sho‘ba tashkilotlari va boshqa affillangan shaxslari, ularning mahalliy vakillari, Tashkilotchi, distribyutorlar, buyurtmachilar, Promo-aksiyani o‘tkazishda ishtirok etayotgan savdo nuqtalari, reklama agentliklari va Promo-aksiya bilan bog‘liq boshqa shaxslar na birgalikda, na alohida holda Qopqoqdagi va/yoki uning zichlagichidagi bosma xato va/yoki boshqa xato, va/yoki sanoat nuqsoni, va/yoki Qopqoqning boshqa shikastlanishi, yoki Belgi(lar)ning o‘qilmasligi uchun, shu jumladan Qopqoqdagi zavod nuqsoni sabab bo‘lgan holatlar uchun hech qanday javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

## **7. «THE COCA-COLA COMPANY» (TCCC) SAVDO BELGILARI**

7.1. Mazkur Qoidalarning hech bir qoidasi Ishtirokchiga TCCC savdo belgilaridan foydalanish munosabati bilan egalik qilish yoki foyda olish huquqini berish sifatida talqin qilinmasligi kerak. Mazkur Qoidalar shartlari ham, Promo-aksiyada ishtirok etish ham Ishtirokchiga TCCC nomi, emblemasi, savdo belgilari yoki mualliflik huquqlaridan marketing yoki reklama maqsadlarida, shuningdek Promo-aksiyaga taalluqli bo‘lmagan boshqa har qanday maqsadlarda (TCCCning oldindan yozma ruxsatisiz) foydalanish yoki ularni tilga olish huquqini bermaydi. Ishtirokchi TCCC savdo belgilarining haqiqiyliğini yoki TCCCning ularga bo‘lgan mulk huquqini tan oladi va hech qachon shubha ostiga qo‘ymaydi.

7.2. Ishtirokchi TCCC savdo belgilariga bo‘lgan huquqlarga rioya qilish shartlarini buzgan taqdirda, Kompaniya talab qilishga haqli, Ishtirokchi esa Kompaniyaning birinchi talabi bilan Kompaniya va/yoki TCCC ko‘rgan barcha zararlarini qoplash majburiyatini oladi.

7.3. Mazkur 6-bo‘lim Promo-aksiya muddati tugaganidan keyin ham amal qiladi.

## **8. YAKUNIY QOIDALAR**

8.1. Iste‘molchilarni Promo-aksiyani o‘tkazish shartlari haqida xabardor qilish Kompaniyaning veb-sayti va Botda tegishli ma‘lumotni joylashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

8.2. Promo-aksiyani o‘tkazishga oid barcha ma‘lumotlar +998 71 209 02 15 telefon raqami orqali taqdim etiladi.

8.3. Kompaniya g‘oliblarga topshirilgan sovrinlardan keyinchalik foydalanish, shuningdek har qanday sababga ko‘ra g‘oliblar tomonidan sovrinlardan foydalanishning imkonsizligi uchun javobgar emas. Aksiyaviy sovrinlar sifati uchun ularning ishlab chiqaruvchisi javobgar bo‘ladi.

8.4. Kompaniya Ishtirokchilar Promo-aksiyada ishtirok etish uchun qilishi mumkin bo'lgan har qanday xarajat va sarf-xarajatlari, shu jumladan, biroq ular bilan cheklanmagan holda: qo'llab-quvvatlash xizmati telefon raqamlariga qo'ng'iroqlar, saytga tashrif buyurish, sovrin(lar)ni olish uchun transport va yashash xarajatlari va/yoki ushbu Ishtirokchilarning O'yinda ishtiroki munosabati bilan Kompaniya yoki Tashkilotchiga tashrif buyurish xarajatlari uchun javobgar emas.

8.5. Kompaniya quyidagilar uchun javobgar emas:

- a) Sovrinlarni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar/hujjatlarning Ishtirokchilarning o'z aybi yoki Ishtirokchi va/yoki Kompaniyaning irodasiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra olinmasligi/kech olinganligi;
- b) Ishtirokchilar tomonidan mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan talablarning bajarilmasligi (yoki o'z vaqtida bajarilmasligi);
- c) Promo-aksiya G'oliblari tomonidan Sovrinlar talab qilib olinmagan yoki ulardan voz kechilgan taqdirda Sovrinlarni olmaslik;
- d) Promo-aksiya G'oliblari tomonidan Hamkor 1 va Hamkor 2ning o'z mablag'lari hisobidan Sovrinlar talab qilib olinmagan, ulardan voz kechilgan yoki Hamkor 1 va Hamkor 2 aybi bilan olinmagan taqdirda;
- e) uchinchi shaxslar aybi va/yoki yengib bo'lmaydigan kuch holatlari sababli G'oliblarga sovrinlarni topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaslik;

8.6. Kompaniya Ishtirokchilar va boshqa uchinchi shaxslar oldida fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, jumladan, hech qanday istisnosiz tabiiy ofatlar, yong'inlar, suv toshqinlari, har qanday tusdagi harbiy harakatlar, blokadalar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi jiddiy o'zgarishlar, shuningdek kelib chiqishi Kompaniyaning irodasi va nazoratiga bog'liq bo'lmagan (yoki bog'liq bo'lgan) boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari uchun javobgar emas.

8.7. Promo-aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak. Nizo yuzaga kelgan sanadan boshlab 60 (oltmish) kalendar kun ichida tinch yo'l bilan kelishuvga erishishning imkoni bo'lmasa, nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining vakolatli sudida ko'rib chiqilishi lozim.

**PROMO-AKSIYADA ISHTIROK ETISH ORQALI, BARCHA ISHTIROKCHILAR MAZKUR RASMIY QOIDALAR MATNI BILAN DIQQAT BILAN TANISHIB CHIQQANLIGINI VA RASMIY QOIDALARNING SHARTLARI HAMDA QOIDALARIGA HECH QANDAY CHEKLOVLAR YOKI ISTISNOLARSIZ SO'ZSIZ ROZI EKANLIGINI AVTOMATIK RAVISHDA TASDIQLAYDILAR.**